

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIVASINI JORIY QILISH ISTIQBOLLARI

Sultonov Baxtiyor Baxodirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti, katta o'qituvchi

Mamlakatning moliyaviy rivojlanganligi va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligi ham aniqlangan. Xandkerning aniqlashicha, mikromoliyalash aholi jon boshiga iste'molni (nooziq-ovqat va xo'jaliklarning aktivlariga nisbatan) ko'paytirganini va va shu tariqa ishtirokchilarning qashshoqlik chegarasidan yuqori bo'lish ehtimolini oshirishini aniqladi. Agar iste'molga ushbu ta'sir uzoq muddatli davom etsa, har yili qariyb 5 foiz qarz oluvchilar o'zlarini qashshoqlikdan qutqarishlari mumkinligini tahmin qildi. Bundan tashqari, u mikromoliyaning farovonlikka ta'siri barcha uy xo'jaliklari, shu jumladan, bu jarayonda ishtirok etmaydiganlar uchun ham ijobiy ekanligini aniqladi. Mikromoliyalash Bangladesh qishloqlarida qashshoqlik umumiy qisqarishining o'rtacha 40 foiziga ta'sir ko'rsatishini aniqladi [1].

Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, boshqaruv, ishlab chiqarish va moliyalashning noan'aviy usullaridan foydalanish ko'proq samara beradi.

Mamlakatimizda loyihalarni moliyalashning noan'anaviy usullari qatoriga, shubhasiz, islomiy moliyalashni kiritish mumkin. Islom moliyasi deganda amaldagi mavjud iqtisodiy qonun va tartiblarni inkor etgan holda yangilarini joriy etish xisoblanmasdan, balki xo'jalik yuritishning shariatga mos usul va tamoyillarini taklif etish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida ham "Shuningdek, mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi", - deya ta'kidlab o'tgan edilar [3].

Islomiy va an'anaviy moliyalash vazifalari deyarli bir xil. Biroq, operatsiyalari, usullari va maqsadlari sezilarli darajada farq qiladi.

Aholi va tadbirkorlar orasida ularning islomiy moliyalash usullaridan xabardorligi, bunday moliyalashga ehtiyoji borligi hamda bu sohani rivojlantirish yo'nalishlari to'g'risida fikrini o'rganish uchun so'rovnoma o'tkazildi [4]. So'rovnomada ishtirokchilarning 38,2 foizi garchi qonun-qoidalarini yaxshi tushunmasa ham diniy qarashlari bois islomiy moliyalash usulini tanlashini bildirganlar. Islom moliyasi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lganlar juda kamligi (64 nafar yoki 9 foiz) aholi va tadbirkorlar orasida, shu jumladan, mass-media orqali islom moliyasi haqida tushuntirish va targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozimligini ko'rsatmoqda. Islomiy moliyaning ommalashuvini belgilovchi omillar bo'lib – moliyaviy savodxonlik, dinga

sodiqlik, uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, inson kapitali, infratuzilma tayyorligi, hukumat siyosati va tartibga solish hisoblanadi [2].

O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan banklar, sug'urta, audit tashkilotlari, yuridik shaxslar hamda aholi ishtirokidagi islom moliya bozori shakllanmagan. Buning eng katta sabablaridan biri bo'lgan - qonunchilik normalaridagi muammolar va to'siqlarni bartaraf etish zarurati vujudga kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 sentabrda PQ-292 sonli qarorida 2023-yilning dekabrigacha islomiy mahsulotlar, xizmatlar va banklar faoliyatining huquqiy asosini yaratish, bu xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash, islom moliyasi asosida jalb etilgan omonatlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik hujjatlarini Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifalari qo'yilgan. Mazkur qarorda belgilangan chora-tadbirlar bu sohada katta ko'lamli islohotlarni boshlash uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi va turtki bo'ladi.

Islomiy bank, moliya, sug'urta, investitsiya va qimmatbaho qog'ozlar bozorini yo'lga qo'yish uchun qator qonun, qaror va nizomlar ishlab chiqilgan, chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da bu sohani rivojlantirish bo'yicha hali amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlar ko'p.

Islomiy moliyaviy shartnomalarga aloqador bo'lgan soliqqa tortish masalalari islomiy bank va moliyalash sektorining yuksalishiga yordam berishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin. Islomiy bank va moliyalash uchun maxsus moslashtirilgan soliq rejimi bo'lmasa, ular ikki tomonlama yoki ma'lum darajada bilvosita soliqqa tortilishi mumkin. Xususan, amaldagi soliq kodeksiga muvofiq foizsiz shartda ajratilgan, qaytarish sharti bilan ajratilgan qarzga qayta moliyalash stavkasida foizlar hisob-kitob qilinib daromad sifatida qaraladi va soliqqa tortiladi. Islomiy moliyalashda hasana qarzi hech qanday ustamalarsiz qaytariladi. Islomiy moliyalashning ushbu vositasi xususiyatiga ko'ra amalda ko'rilmagan naf, olinmagan daromadga soliq solish yuzaga keladi.

Islom moliyasini joriy qilgan yetakchi davlatlarda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham qonunchilik talabi bilan har bir tashkilot o'zida shariat kengashi tuzishga yoki talab darajasida tashkil etilgan shariat kengashlari xizmatlaridan foydalanishga ruxsat berilgani bilan shariat kengashi a'zolariga qo'yilgan talablarga javob beradigan mutaxassislarning yetishmovchiligi muammosiga duch kelinishi mumkin.

Islom moliyasi bo'yicha bakalavr va magistr darajalari uchun ta'lim dasturlarini yaratish juda muhim, chunki hozirda bu sohada tajriba yetishmaydi. Malayziya bugungi kunda islom moliyasi sohasida tadqiqot markaziga aylangan. Bu mamlakatda Islom moliyasi uchun xalqaro ta'lim markazi (International Educational Center for Islamic Finance, INSIF) va Islom moliyasida Shariat ta'limotlari uchun xalqaro akademiya (International Academy for Sharia Studies in Islamic Finance, ISRA) kabi ta'lim maskanlari faoliyat yuritadi. Shu va shu kabi boshqa ta'lim maskanlari bilan hamkorlik qilish va o'rganish uchun ochiq (masalan AAOIFI standartlari) ma'lumotlardan foydalangan holda

foydalanuvchilar kategoriyalari uchun turli o'quv dasturlari ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu dasturlar asosida malakali mutaxassislarini (ham diniy ulamo ham iqtisodchi, yuristlar) jalb qilgan holda o'quv kurslarini tashkil qilish kerak. Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan ishlab chiqilgan shariat (61 ta), buxgalteriya (42 ta) hamda audit va boshqaruv (24 ta) standartlarini (kontseptual asos va kodekslar bilan birga) o'zbek tiliga tarjima qilish ham birinchi navbatdagi masalalardan hisoblanadi.

Qonunchilikka islomiy tijorat banklari tushunchasini kiritish, ular faoliyatining normalarini belgilash va bu banklarga bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug'urta faoliyati, yuridik shaxslarni tashkil etish va yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi ulushlarga egalik qilishga ruxsat berilishi lozim.

Har bir islomiy moliya tashkiloti huzurida notijorat maqsadlarda foydalanilishi uchun maxsus jamg'arma tashkil etilishining huquqiy asoslarini belgilash lozim. Bu jamg'arma daromad manbalari bo'lib mikromoliya tashkilotining aktiv operatsiyalari bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmagan mijozlariga qo'llanilgan jarima summolari, ehson, zakot kabi o'tkazmalar bo'ladi. Jamg'arma esa bu mablag'larni hisobini alohida yuritib, har birini o'z maqsadida – hasana qarziga, ehtiyojmand oilalarga sarflanishini ta'minlaydi. Islom moliyasi sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar va davlat nazorati organlari tomonidan kelib chiqadigan tushunmovchiliklarga izoh beruvchi, amalga oshirilgan operatsiyalarning islom dini tamoyillariga muvofiqligini tekshirib turadigan davlat tuzilmasini belgilash lozim.

Islomiy mikromoliya tashkilotlarini yuzaga keltirish orqali kambag'allikni kamaytirish mumkin. Birinchidan, deyarli daromadga ega bo'lmagan kambag'al va muhtojlarga zakot, sadaqa va vaqf orqali moddiy yordam ko'rsatiladi. Ikkinchidan, aholisining katta qismi musulmonlar bo'lgan mamlakat uchun islomiy mikromoliyalash harakatsiz aktivlardan samarali foydalanish imkoniyati ochiladi. Chunki ko'pchilik, hatto moliyaviy xizmatlarga zarur bo'lsa ham, ulardan diniy sabablarga ko'ra foydalanmaslikka harakat qiladi. Uchinchidan, moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi va moliyaviy natijasidan qat'iy nazar ustama foiz hisoblanishi iste'molchilar moliyaviy ahvolining yomonlashishiga olib keladi. Islomiy moliyalash foizli kreditlardan farqli o'laroq foyda va zararlarni taqsimlash yo'li bilan iste'molchilarga keng imkoniyatlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan manbalar

1. *Ranjula B.S. Microfinance: a Catalyst for Development at Macroeconomic Level?/ Dans Finance & Bien Commun 2006/2 (No 25), pages 83-87.*
2. *Lwesya F., Mwakalobo A. Frontiers in microfinance research for small and medium enterprises (SMEs) and microfinance institutions (MFIs): a bibliometric analysis/ Future Business Journal (2023) 9:17.*<https://doi.org/10.1186/s43093-023-00195-3>
3. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
4. <https://docs.google.com/forms/d/1s-ecG3o100T5ZhlWjKzAj1XSIbdddhwGFqx9bsq-0qg/edit#responses>